



MAQOLLARNING SHAKLLANISH TARIXI

Norsafarova Nilufar Boybo'ri qizi

Annotatsiya : *Ushbu maqolada bugungi kunda tilimizda mavjud bo'lgan maqollarning qadimgi ko'rinishi hamda shakllanishi qomusiy olim Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'ot at-turk" asari hamda Muhammadsharif Gulxaniyning "Zarbulmasal" asari orqali qiyoslab ko'rsatiladi.*

Kalit so'zlar : *maqol, sinonim, variantdoshlik, shakl, ma'no - mazmun, ibrat, taraqqiyot, o'zgarish, tarix, lug'at, kompozitsiya, syujet.*

HISTORY OF FORMATION OF PROVERBS

Norsafarova is the daughter of Nilufar Boybori

Abstract: *This article compares the ancient appearance and formation of proverbs in our language today through the work "Devonu lug'ot at-turk" by the encyclopedist Mahmud Koshgari and the work "Zarbulmasal" by Muhammadsharif Gulkhani.*

Key words: *proverb, synonym, variant, form, meaning - content, parable, development, change, history, vocabulary, composition, plot.*

ИСТОРИЯ ФОРМИРОВАНИЯ ПОСЛОВИЦ

Норсафарова — дочь Нилуфар Бойбори.

Абстрактный: *В данной статье сравнивается древнее появление и формирование пословиц в нашем языке сегодня благодаря труду «Девону луг'от ат-тюрк» энциклопедиста Махмуда Кошгари и труду «Зарбулмасал» Мухаммадшарифа Гулхани.*

Ключевые слова: *пословица, синоним, вариант, форма, смысл-содержание, притча, развитие, изменение, история, лексика, композиция, сюжет.*

KIRISH

Maqollar haqida so'z yuritar ekanmiz, avvalo, maqol atamasiga e'tibor qaratamiz. Maqollar xalq og'zaki ijodi janri, qisqa va lo'nda, obrazli va grammatik hamda mantiqiy tugal ma'noli hikmatli ibora, chuqur mazmunli birlik sanaladi. Maqollarda ajdodlarimizning hayotiy tajribalari, jamiyatga munosabati, tarixi, ruhiy holati, etik va estetik tuyg'ulari, ijobiy fazilatlarini mujassamlashgan. Bunday birliklarga dastlabki namunalar qomusiy olim Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'ot at-turk" asarida uchraydi. Bu asarda qo'llangan ko'pgina maqollar xalqimizning qariyb ming yillik



tarixini, hayotini, urf-odat hamda qadriyatlarini o'zida aks ettiradi. Asarda 300 ga yaqin maqol va matallar mavjud.

Keyinchalik tilimizning taraqqiylashuvi natijasida ham "Devonu lug'ot at-turk" asaridagi, ham Muhammadsharif Gulxaniyning "Zarbulmasal" asaridagi ko'plab maqollar lug'aviy, fonetik va morfologik o'zgarishlar bilan shakllanib bizgacha yetib kelgan.

Masalan, "Devonu lug'ot at-turk" asarida keltirilgan maqollarni bugungi kundagi ko'rinishi bilan taqqoslab chiqamiz :

1. Kishi olasi ichtin, yilqi olasi tashtin -
Odamning olasi ichida, mol olasi tashida;
2. Qish qo'niqi - o't -
Qishning ziyofati olov[dir] ;
3. Yazmas atim - yag'mir,
Yangilmas bilga - yanqu -
Xato qilmaydigan mergan - yomg'ir,
Yanglishmaydigan dono - aks-sado ;
(bilga - dono)
4. Ag'ilda o'g'laq tug'sa, ariqda o'ti unar -
Og'ilda uloq tug'lsa, ariqda o'ti chiqadi;
5. Uma kelsa, qut kelur -
Mehmon kelsa, baraka kelar;
(Uma - mehmon)
6. Qush qanatin, er atin -
Qush qanoti bilan, er oti bilan ;
7. O'kuz azaqi bo'lg'incha, buzag'u bashi bo'lsa yik -
Ho'kizning oyog'i bo'lguncha buzoqning boshi bo'lgan yaxshiroq;
(Yik - yaxshiroq)
8. Tag'ig' uqruqin egmas, tengizni qayg'iqin bukmas -
Tog' arqon bilan egilmaydi, dengiz qayiq bilan bekilmaydi;
9. Emgak ekinda qolmas -
Mehnat bekor ketmaydi;
(Emgak - mehnat)
10. O'd kechar, kishi to'yimas, yalinguq o'g'li mangu qalmas -
Zamon o'tar, kishi to'yimas, inson bolasi mangu qolmas ;
(O'd - zamon, yalinguq - inson).

Shuningdek, Muhammadsharif Gulxaniyning "Zarbulmasal" asarida ham bu hodisani kuzatishimiz mumkin. Gulxaniy ushbu asarini yozishda maqol, naql va xalq og'zaki ijodining 400 ga yaqin namunalaridan mahorat bilan foydalangan. Asarning kompozitsion qurilishi, syujeti maqollar asosida qurilganligi tufayli murakkab sanaladi. Ammo tushunilishi jihatidan oson va qiziqarli. Asarda insonlarning xatti -



harakatlari, ruhiyati tasviri aynan qushlarning suhbatlari orqali ochib berilgan. Asardagi Yapaloqqush va Boyo'g'li markaziy qahramonlar hisoblanadi.

Bu asar Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'ot at-turk" asaridan ancha keyin yaratilganligi tufayli asardagi qo'llangan maqollar hozirgi kunda insonlar nutqida qo'llanuvchi maqollardan keskin farq qilmaydi. Asarda keltirilgan maqollarning variantlari hozirgi kunda keng qo'llaniladi :

1. Yetim o'g'ul saqlasang, og'zi-burning qon etar, yetim qo'zi saqlasang, og'zi-burning moy etar -

Yetim bola boqsang, og'zi-burning qon bo'lur, yetim qo'zi boqsang, og'zi-burning moy bo'lur ;

2. Kordon: "Ema bilgan qo'zilar ikki onani emar,
Ema bilmas qo'zilar o'z onasini emolmas "

Ushbu maqolning hozirgi kunda keng qo'llaniladigan varianti ham aynan asar ichida keltiriladi:

Qalovini topsang, qor yonar,

Qalovini topmasang, qaqshol o'tin ham yonmas;

3. Kordon: Singan bo'yunni qilich kesmas-

Egilgan boshni qilich kesmas;

4. Navozanda : "Daraxtni o'zga joyga o'rnatsalar ko'karmas" -

Daraxt bir joyda ko'karadi;

5. Uydagi so'z bozorg'a rost kelmas -

Uyning gapi ko'chaga to'g'ri kelmaydi;

6. Ko'rqush: Qo'chqor bo'lur qo'zining peshonasi do'ng bo'lur-

Bo'ladigan bola boshidan ma'lum;

7. Yapaloqqush : "Bemor tuzalgisi kelsa, tabib o'z oyog'i birla kelur" -

Xohish bo'lsa, imkon topilur;

8. Oz oshim - g'avg'osiz boshim-

Och qornim - tinch qulog'im;

9. Turumtoy: "Ikki suyuqlik bir ko'ngulga sig'madi" -

Ikki kalla bir qozonda qaynamas;

10. Bugungi naqd o'pka ertagi quyruqdan yaxshiroq -

Uzoqdagi qarindoshdan yaqindagi qo'shni yaxshi.

Muhammadsharif Gulxaniyning "Zarbulmasal" asarining tili hozirgi o'zbek adabiy tili bilan yaqin bo'lganligi tufayli undagi ko'plab maqollar hozirgi kunda ham nutqimizda hech qanday o'zgarishlarsiz qo'llanadi. Ularga quyidagi maqollarni keltirishimiz mumkin :

1. Boshga tushganni ko'z ko'rar;

2. Yiqilgan kurashga to'yimas;

3. Boyqush: Ko'rpangga qarab oyoq uzat;

4. Kordon: Qizim, senga aytdim, kelinim, sen eshit;

5. Qalovini topsang, qor yonar.



Ma'lumi, yillar davomida maqollar ham boshqa janrlar singari o'zgarib, shakllanib boradi. Yuqoridagi tahlillardan ko'rinib turibdiki, maqollar shaklan o'zgarsa ham mazmun jihatdan o'zgarmaydi. Keyinchalik ham o'sha mazmun-mohiyat saqlanib qoladi. Maqollarning shakllanish tarixi mazmuni saqlangan holda yuz beradi.

Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'ot at-turk" asaridagi maqolalarga diqqat qiladigan bo'lsak, ba'zi maqollarni lug'atlarga tayanmagan holda tahlil qilish imkonsiz. Bu bilan XI asr hamda XXI asr tili orasidagi farqning keskinligiga guvoh bo'lishimiz mumkin.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, maqollarning shakllanish tarixi shakliy jihatdan yuzaga chiqadi hamda aynan asarlarda ko'rib o'tganimiz singari til taraqqiyotiga, tilning rivojlanish tarixiga borib taqaladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- 1."Devonu lug'ot at-turk" asaridan olingan parchalar Q. Sodiqov nashridan.
- 2.Sh.Shomaqsudov, Sh. Shorahmedov "Ma'nolar maxzani", T., 2001.
3. www.ziyouz.com kutubxonasi.
4. Gulxaniy Zarbulmasal "O'qituvchi "Toshkent - 1972
5. O'zME.Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil.